



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



*2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (fermer va
dehqon xo'jaliklarisiz)*

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025-yil 1-yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 25 163 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 19 967 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 53 301 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,9 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiy ma'lumotlar

(1-yanvar holatiga)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar


(2024-yil yanvar-dekabr holatiga)

2024-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 4 294 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Ulug'nor (83 taga), Qo'rg'ontepa (68 taga) va Buloqboshi tumanida (43 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari sohasida – 116 taga, sanoat – 44 taga hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 14 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni

(birlikda)




Hududlar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)




(2025-yil 1-yanvar holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 25 163 tani tashkil etdi, ulardan 20 101 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 30,1 foiz, sanoat – 17,3 foiz, qurilish – 6,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 5,2 foiz, hududlar kesimda esa eng ko'pi Andijon shahrida – 26,5 foiz, tumanlardan Asaka – 8,3 foiz, Andijon – 8,0 foiz, Shahrixon – 6,9 foiz va Baliqchida – 6,0 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil yanvar-dekabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 125 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 4 122 ta;
- yirik korxonalar 3 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 20 101 tani tashkil etdi, ulardan 19 967 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,7 foiz, sanoat – 21,6 foiz, qurilish – 7,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 6,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 4,4 foiz, tashish va saqlash – 3,4 foiz, axborot va aloqa – 1,9 foiz, boshqa turlari – 11,2 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil yanvar-dekabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024-yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 171 tadan 287 taga (o'sish 116 taga), sanoat sohasida – 860 tadan 902 taga (o'sish 42 taga) ko'paydi.

Yillar kesimida soni


(birlikda)

**Hududlar kesimida soni**

(birlikda)

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni**


(birlikda)




(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Hududlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Andijon shahrida (27,5 foiz), Andijon (8,4 foiz), Asaka (8,3 foiz), Shahrixon (6,8 foiz) va Baliqchi (6,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2025-yil 1-yanvar holatiga)


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Asaka (13,2 foiz), Baliqchi (9,9 foiz) va Ulug'nor (9,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Asaka t.	174
Baliqchi t.	130
Ulug'nor t.	121
Qo'rg'ontepa t.	108
Andijon t.	101
Marhamat t.	93
Jalaquduq t.	78
Andijon sh.	76
Bo'ston t.	74
Shahrixon t.	67
Izboskan t.	66
Oltinko'l t.	63
Paxtaobod t.	63
Xo'jaobod t.	50
Buloqboshi t.	43
Xonobod sh.	11

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-yanvar holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 17,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,9 foizini ishlab chiqarish sanoati, 2,3 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,9 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	1 207
Andijon t.	506
Asaka t.	355
Shahrixon t.	314
Xo'jaobod t.	261
Baliqchi t.	221
Oltinko'l t.	210
Qo'rg'ontepa t.	202
Jalaquduq t.	182
Marhamat t.	165
Izboskan t.	164
Buloqboshi t.	154
Bo'ston t.	125
Paxtaobod t.	124
Ulug'nor t.	85
Xonobod sh.	80

Yillar kesimida soni (birlikda)



4 135

Ishlab chiqarish
sanoati



98

Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash



83

Suv bilan ta'minlash kanalizat-
siya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish



39

Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash



(2025-yil 1-yanvar holatiga)


O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,3 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 28,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 16,6 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	528
Asaka t.	119
Andijon t.	118
Shahrixon t.	113
Bo'ston t.	89
Oltinko'l t.	89
Izboskan t.	65
Baliqchi t.	62
Marhamat t.	61
Paxtaobod t.	51
Xo'jaobod t.	50
Qo'rg'ontepa t.	45
Ulug'nor t.	45
Buloqboshi t.	43
Jalaquduq t.	33
Xonobod sh.	22



Bino va inshootlar qurish

847

431

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish

255

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 7 557 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 62,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 30,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 6,7 foiz ulushni tashkil etdi

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Andijon sh.	1 752
Asaka t.	615
Andijon t.	594
Baliqchi t.	541
Shahrixon t.	527
Oltinko'l t.	445
Izboskan t.	426
Qo'rg'on tepa t.	419
Jalaquduq t.	409
Paxtaobod t.	336
Xo'jaobod t.	324
Marhamat t.	314
Ulug'nor t.	272
Bo'ston t.	259
Buloqboshi t.	212
Xonobod sh.	133

Yillar kesimida soni
(birlikda)



4 750

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

2 319

509

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 1 188 taga yetib, ularning 1 185 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 5,6 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 94,4 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	421
Andijon t.	111
Asaka t.	84
Shahrixon t.	68
Qo'rg'ontepa t.	62
Baliqchi t.	56
Oltinko'l t.	55
Jalaquduq t.	48
Marhamat t.	46
Ulug'nor t.	45
Izboskan t.	41
Paxtaobod t.	41
Xonobod sh.	31
Xo'jaobod t.	29
Buloqboshi t.	26
Bo'ston t.	24

Yillar kesimida soni (birlikda)



1 122

Oziq-ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha
xizmatlar

66

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

2025-yil 1-yanvar holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 76,3 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 20,7 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,0 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	138
Marhamat t.	36
Baliqchi t.	36
Xo'jaobod t.	27
Andijon t.	24
Buloqboshi t.	23
Asaka t.	18
Paxtaobod t.	15
Ulug'nor t.	14
Qo'rg'ontepa t.	14
Oltinko'l t.	14
Shahrixon t.	12
Izboskan t.	8
Jalaquduq t.	7
Bo'ston t.	6
Xonobod sh.	4

Yillar kesimida soni (birlikda)



 Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	115	187	Aloqa 
 Noshirlik faoliyati	33	49	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyati 
 Kino-videofilmlar,televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	8	4	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish 

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 879 ta yoki 91,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 97,1 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;








































yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,0 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,9 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	338
Asaka t.	79
Andijon t.	66
Shahrixon t.	65
Oltinko'l t.	55
Baliqchi t.	48
Xo'jaobod t.	45
Izboskan t.	44
Marhamat t.	44
Paxtaobod t.	42
Jalaquduq t.	39
Qo'rg'ontepa t.	37
Buloqboshi t.	28
Xonobod sh.	11
Bo'ston t.	11
Ulug'nor t.	8

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	238
Asaka t.	55
Shahrixon t.	51
Andijon t.	44
Marhamat t.	43
Bo'ston t.	38
Paxtaobod t.	37
Xo'jaobod t.	31
Oltinko'l t.	27
Izboskan t.	25
Qo'rg'ontepa t.	23
Baliqchi t.	22
Buloqboshi t.	21
Jalaquduq t.	18
Ulug'nor t.	17
Xonobod sh.	7

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,8 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:



- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 68,7 foizni tashkil etdi;

- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 29,3 foizni;

- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,7 foizni;

- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,3 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko'rsatayotgan
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)

16 931

mas'uliyati cheklangan
jamiyat

84,2

1 788

xususiy korxonalar

8,9

1 199

oilaviy korxonalar

6,0

35

aksiyadorlik jamiyati

0,2

148

boshqalar

0,7

(2024-yil yanvar-dekabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	819
Andijon t.	306
Baliqchi t.	243
Qo'rg'ontepa t.	242
Asaka t.	242
Shahrixon t.	219
Ulug'nor t.	204
Izboskan t.	204

Oltinko'l t.	195
Xo'jaobod t.	186
Marhamat t.	173
Paxtaobod t.	158
Jalaquduq t.	157
Bo'ston t.	128
Buloqboshi t.	119
Xonobod sh.	70

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Amaldagi 20 101 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2025-yil 1-yanvar holatiga mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 16 931 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,4 foiz, sanoat – 20,8 foiz, qurilish – 8,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 5,9 foiz.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Andijon sh.	4 877
Andijon t.	1 391
Asaka t.	1 219
Shahrixon t.	1 161
Baliqchi t.	1 015
Oltinko'l t.	852
Izboskan t.	819
Marhamat t.	803

Xo'jaobod t.	766
Jalaquduq t.	755
Qo'rg'ontepa t.	755
Paxtaobod t.	698
Ulug'nor t.	584
Buloqboshi t.	479
Bo'ston t.	472
Xonobod sh.	285


(2025-yil 1-yanvar holatiga)

2025-yil 1-yanvar holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Andijon shahrida – 406 ta, Asaka – 276 ta va Baliqchi tumanida – 162 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 703 ta, sanoat – 308 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 138 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 136 ta.

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	406
Asaka t.	276
Baliqchi t.	162
Oltinko'l t.	108
Qo'rg'ontepa t.	104
Andijon t.	102
Jalaquduq t.	101
Shahrixon t.	98


Marhamat t.	85
Xo'jaobod t.	80
Izboskan t.	64
Bo'ston t.	54
Paxtaobod t.	48
Buloqboshi t.	44
Xonobod sh.	30
Ulug'nor t.	26

(2025-yil 1-yanvar holatiga)


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1 199 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: sanoat – 37,5 foiz, savdo – 28,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 13,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 9,1 foiz, hududlar kesimda esa eng ko'pi Andijon shahri – 17,3 foiz, Andijon – 14,8 foiz, Asaka – 13,8 foiz va Bo'ston tumanida – 12,0 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	208
Andijon t.	177
Asaka t.	166
Bo'ston t.	144
Qo'rg'ontepa t.	121
Shahrixon t.	85
Oltinko'l t.	78
Buloqboshi t.	61

Izboskan t.	48
Baliqchi t.	27
Xonobod sh.	22
Ulug'nor t.	20
Marhamat t.	18
Jalaquduq t.	9
Paxtaobod t.	9
Xo'jaobod t.	6

(2025-yil 1-yanvar holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Qo'rg'ontepa (11,4 foiz), Jalaquduq (10,4 foiz) va Ulug'nor (10,2 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qo'rg'ontepa t.	962
Jalaquduq t.	878
Ulug'nor t.	861
Paxtaobod t.	767
Andijon t.	686
Asaka t.	666
Baliqchi t.	611
Marhamat t.	570
Xo'jaobod t.	569
Izboskan t.	492
Shahrixon t.	412
Buloqboshi t.	331
Bo'ston t.	311
Oltinko'l t.	290
Xonobod sh.	8
Andijon sh.	2

Yillar kesimida soni (birlikda)



7 897

Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

35

Baliq ovlash
va akvakultura

484

O'rmonchilik
va yog'och tayyorlash


Faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e‘tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan 308 ta korxonalardan 116 tasi qo‘shma korxonalar va 192 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	131
Andijon t.	23
Oltinko‘l t.	19
Asaka t.	15
Jalaquduq t.	15
Shahrixon t.	13
Izboskan t.	13
Buloqboshi t.	13

Xo‘jaobod t.	13
Xonobod sh.	10
Marhamat t.	9
Baliqchi t.	8
Ulug‘nor t.	8
Paxtaobod t.	7
Qo‘rg‘ontepa t.	7
Bo‘ston t.	4

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Chet el investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 307 tadan 308 taga (o'sish 1 taga) ko'paydi.

Yetakchi o'rinni 83 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu, viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Andijon viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 19,8 foiz), Turkiya (ulushi 15,6 foiz), Qirg'iz Respublikasi (ulushi 13,3 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 8,1 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanadilar.

(2025-yil 1-yanvar holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Andijon shahriga 42,5 foiz, tumanlar orasida esa Andijon – 7,5 foiz, Oltinko'l – 6,2 foiz, Asaka – 4,9 foiz, va Jalaquduq – 4,9 foiz to'g'ri keladi.

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar

40	Andijon sh.	91	9	Xo'jaobod t.	4
11	Andijon t.	12	7	Xonobod sh.	3
7	Oltinko'l t.	12	3	Marhamat t.	6
9	Asaka t.	6	4	Baliqchi t.	4
3	Jalaquduq t.	12	4	Ulug'nor t.	4
5	Shahrixon t.	8	4	Qo'rg'ontepa t.	3
4	Izboskan t.	9	3	Paxtaobod t.	4
7	Buloqboshi t.	6	2	Bo'ston t.	2

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).


Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016-yil 24-avgustdagi** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2025-yil 1-yanvar** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
Tel.: 74 228-29-74

PRESS-RELIZ

